



ADABIY TIL USLUBLARIDA SO'Z TANLASHNI O'QITISHGA OID METODLAR

Nazarova N.A.

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti O'zbek tili,
pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: adabiy til, nutq uslublari, betaraf so'zlar, bo'yoqdor so'zlar, atamalar, sinonimik qator, ma'nodosh so'zlar qatori, so'z ma'nolari, metod va usullar.

Ключевые слова: литературный язык, стили речи, нейтральные слова, красочные слова, термины, синонимический ряд, строка синонимов, значения слов, приемы и методы.

Key words: literary language, speech styles, neutral words, colorful words, terms, synonym series, synonym string, word meanings, method and methods.

Kirish. Har bir til turli shakl va ko'rinishlar, uslub va yo'nalishlar asosida voqelanadi. Adabiy nutq uslublari har doim tilshunoslik va tilshunos olimlar e'tibori markazida bo'lib, muttasil o'rganiluvchi mavzulardan biridir. Nutq uslublari til qoidalari va adabiy til me'yorlari asosida shakllanadi. Nutq uslublari nazariy jihatdan keng o'rganilgan. Amaliyotda ham nutq uslublariga bog'liq nazariyalar o'z isbotini topgan. O'zbek adabiy tilida qo'llaniluvchi asosiy besh nutq uslublari (so'zlashuv, badiiy, ilmiy, ommaviy, rasmiy-idoraviy uslub) larni o'qitish bir qaraganda sodda, oddiy ko'rinadi. Aslida, nutq uslublari o'qitishda bir nechta e'tiborga molik jihatlar mavjud. Avvalo, o'rganuvchining yosh xususiyati hamda nutq uslublari qay darajada o'rganishi kerakligiga aniqlik kiritib olinadi. Adabiy nutq uslublari nutq madaniyatining ajralmas qismidir. Nutq madaniyati tushunchasi real hodisa ekanligi, avvalo, uning adabiy til va adabiy madaniyati bilan bog'liqligida bo'lsa, qolaversa, kishilarning kundalik nutqiy faoliyati bilan aloqadorligidandir. Ta'kidlash kerakki, adabiy tilning mavjudligi nutq madaniyatini tashkil etavermaydi. Adabiy til va uning me'yorlari, avvalo, o'rta va oliy maktab ta'limi orqali, qolaversa, oiladagi tarbiya orqali o'zlashtiriladi. Mustaqil shug'ullanish badiiy adabiyot, gazeta va jurnallarni o'qish, radio televideniya kabilar adabiy til me'yorlarini egallashda



muhim. Adabiy til madaniyatini egallashda tilga e'tibor katta ahamiyatga ega. Uni shunchaki qiziqish yoki yo'l-yo'lakay o'rganib bo'lmaydi. Adabiy til va u bilan bog'liq bo'lgan adabiy til madaniyati — bu avvalo, nutqiy ko'nikma, nutqiy malakadir. Adabiy nutq malakasiga adabiy me'yorlarini egallash orqali erishiladi. O'rta maktab ta'limida nutq malakasi, nutqiy ko'nikma, yozma nutq ko'nikmasi, og'zaki nutq ko'nikmasi, nutq madaniyati malakasi kabi tushunchalar bor. Bularning barchasi adabiy til madaniyatini egallash bilan bog'liq.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tilshunoslik sohasi mutaxassisi bo'lmagan talabalar uchun ham, tilshunoslik asosiy yo'nalishi bo'lgan talaba yoki o'quvchilarga ham nutq uslublari o'qitishning bir qancha metodlari mavjud. Masalan, “Ma'lumotlar zanjiri” metodi asosida guruhdagi har bir talabadan birma-bir nutq uslublari haqidagi boshlang'ich bilimlari asosida ma'lumotlar jamlanadi.

Masalan:

Milliy til bu millat tili hisoblanadi.

Bizning milliy tilimiz o'zbek tilidir.

Milliy til adabiy til va sheva kabi tarkibiy qismlardan iborat.

O'zbek adabiy tilida asosan beshta nutq uslubi mavjud.

So'zlashuv-sodda, badiiy uslub ta'sirli...

Shu kabi izchillikdagi nazariy ma'lumotlar mavzuga mos, qisqa, aniq, to'liq, ishonchli va ilmiylikka asoslangan holda imkon qadar sodda gaplar ko'rinishida beriladi. Ma'lumotlar keltirishda talabalar tadrijiylikka, ma'lumotlar ketma-ketligiga ahamiyat berishsa va ma'lumotlar takrorlanmasligiga e'tibor qaratishsa “Ma'lumotlar zanjiri” metodi yaxshi samara beruvchi va barcha talabalarni qamrab olishga qaratilgan noan'anaviy metod bo'la oladi. Ma'lumot keltirish jarayonida to'xtalish va takrorga yo'l qo'ygan talaba zanjirini bir halqasi bo'la olmaganligi, ya'ni uzilish qilganligi sabab turib qoladi. So'ng navbatdagi talaba ketma-ketlikda yangi ma'lumotlar keltirishda davom etadi. Shu tariqa hamma talabalar bir yoki ikki marotabadan ma'lumotlar keltirishsa, o'qituvchi tomonida ma'lumotlar jamlanib nutq uslublari haqida qo'shimcha ma'lumotlar keltiriladi va turib qolgan talabalar ustoz aytgan ma'lumotlarni aynan takrorlab berishadi va o'tirishga ruxsat olishadi.

Misol uchun: So'zlashuv-sodda, oddiy, hamma uchun birdek tushunarli bo'lgan, hayotimizning hamma bosqichida faol nutq uslubi. Oilada, ko'chako'ya, umuman keng doirada qo'llaniluvchi uslubdir... Badiiy uslub esa jimjimadorlik, tasviriy vositalar, tasviriy ifodalarga boy, hissiy ta'sirga ega yoqimli nutq uslubidir...[1:58] Ilmiy uslub-ilm-fan tili. Hayotning ayrim bosqichlaridagina faollashadigan murakkab nutq uslubidir...[1:58] Ommaviy

(publitsistik) uslub-OAV tili, bu uslubda og'zaki va yozma shaklda jamiyat siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotidagi axborot va xabarlar beriladi. Adabiy til me'yorlari asosida ish ko'ruvchi faol uslubdir. [1:60] Va nihoyat rasmiy-idoraviy uslub-bu nutq uslubi hamma uslublardan farqlanadi. Qolipli ko'rinish va qolipli jumlar uchrovchi, murakkab, tuzatish va o'zgartirishlar qabul qilinmaydigan uslubdir.

Natijalar. O'quvchi va talabalarning nutq madaniyatini, milliy til, ya'ni ona tilini bilish darajasini orttirish va mantiqiy fikrlashga qaratilgan "Aqliy hujum" usuli orqali bu mavzuga oid bilimlar boyitiladi. (Tezkor, qo'zg'atuvchi savollarga namunalar: Sizningcha, siz-u biz hayotimizning hamma bosqichida eng faol qo'llaniluvchi nutq uslubi qaysi? Nutq uslublari orasida jimjimadorlik, tasviriylik va ta'sirchanlik talab qiladigan uslub qaysi? Hayotimizning ayrim bosqichlaridagina qo'llanilib, asosan yozma shaklda ifoda etiluvchi uslubni ayting...) Shu kabi metodlar asosida talabalar yangi mavzuga olib kiriladi va yangi mavzu tushuntiriladi.

Nutq uslublarini to'g'ri anglash, o'zaro farqlash va uslubga mos so'z tanlash qobiliyati shakllanishida nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar ham muhim hisoblanadi. Avvalo, "Sinonimik qator" ("ma'nodoshlik qatori") haqida bilim berish zarur. Shundagina nutq uslublarida so'z qo'llash malakasi rivojlanadi. Sinonimik qatorni hosil qiluvchi so'zlarga namunalar keltiriladi. Eng oddiy, eng faol so'zlardan foydalanish osonroq. Masalan: yuz, bet, aft, chehra, oraz, ruxsor, bashara, turq, ... Bunda "X-Y o'qi" shakli chiziladi va yuqori taraf ijobiy bo'yoqdorligi, chiziqqlar tutashgan nuqtadan pastlik salbiy bo'yoqdorligiga ega muqobillari joylashtiriladi. Talabaning o'zi so'zlar topib shu chizmaga joylashi zarur. Osmon, ko'k, fazo, samo; hatto sifatlarda ham qisman ijobiylikni yoki salbiylikni darajanlantirish bo'yog'i mavjudligini aytish va misollar keltirish mumkin. Misol uchun: chiroyli, go'zal, nafis; ahmoq, tentak, telba, jinni, esipas... Shu zaylda asosiy mavzuga oid ma'lumotlar asta tushuntiriladi. Ya'ni ma'nodoshlik qatorida ham ijobiylik, ham salbiylik bo'yog'idan qisman holi 0 oldida, o'qlar tutashgan nuqtada turuvchi so'z mavjud. Bu so'z "betaraf", "neytral" so'z deyiladi. Va shu so'z hamisha ilmiy, rasmiy uslubda qat'iy qo'llaniladi. Bu so'z adabiy til me'yorlari asosidagi so'zdir. Shevaga oid emas, asosan adabiy til unsuri hamdir. Demak, bo'yoqdor so'zlar badiiy va so'zlashuv uslubi material bo'lsa, betaraf, bo'yoqsiz so'z muqobili esa rasmiy, ilmiy, qisman ommaviy nutq uslubi materialidir. Betaraf so'zlar bo'rtirish, ortiqcha bo'yoqdorlikni ifodalamaydi. So'zlovchining kayfiyati, tarafkashligidan holi bo'la oladi. Shuni hisobiga xolislik asosida fikr ifodasi beriladi. Rasmiy uslubda ayrim hujjatlarda, masalan, dalolatnoma (akt)larda



hayajon va ruhiy holatni ifodalash uchun va sodir etilgan voqeylikni aniq aks ettirish uchun sheva va muhitga munosib so'zlashuv uslubidagi so'zlardan ham keng foydalaniladi. Masalan, dalolatnomada ko'zda tutilgan shaxslar vaziyatini to'g'ri ko'rsatish uchun aytgan so'zlari aynan shu uslubda berilishi mumkin. Bu iste'noli ish hujjatlari. Boshqa ish hujjatlarida esa rasmiy uslub talabida asosida betaraf, bo'yoqlarsiz jumlar bilan ifodalanishi ma'qulroq. Ilmiy uslub ham ilmfan tili va ilm egalari xos uslubligi sabab adabiy tildagi, oddiy betaraf so'zlarni talab qiladi. Ilmiy uslubda atamalar ham adabiy til me'yorlariga mos tarzda qo'llaniladi. Bu ma'lumotlar tilshunoslik yo'nalishida bo'lmagan talabalarga shu tartibda qisqa, lekin tushunarli tartibda o'qitiladi. Murakkab atamalar, chuqur ilmiy, grammatik ma'lumotlar berilishi nofilolog talabalar uchun qiyinlik qiladi. Shu sababli talabalarga betaraflik, bo'yoqdorlik (ijobiylik, salbiylik), nutq uslublarini hisobga olib so'z qo'llashni o'rgatish zarur.

Xulosalar. Demak, mustaqil so'z turkumlaridagi so'zlar qo'llanilishi beixtiyor adabiy nutq uslublariga bog'liq holat ekan. Buni sodda, qisqa, tushunarli metodlar asosida talaba va o'quvchi yoshlarga o'rgatish muhim hisoblanadi. Mavzuni o'qitishda nazariy bilimlar berishdan tashqari amaliy namunalar ham berilishi kerak. Har bir ma'lumot ortidan bir qancha talabalarning ta'lim yo'nalishiga oid va o'quvchilarning esa qiziqish va yosh hususiyatiga qarab misollar keltirish yaxshi natija beradi, albatta. Inson soha mutaxassis sifatida ham, shunchaki so'zlovchi sifatida ham jumla tuzishda to'g'ri so'z qo'llash malakasini oiladan ko'ra ko'proq va asosli tarzda ustozlardan ta'lim jarayonida o'rganadi. Shu bois bu masalaga pedagoglar jiddiy qarashi lozim. Chunki munosib gap va so'z topib qo'llash umrbodli, muhim masala. Inson nutq madaniyati unga hayoti, faoliyati davomida nihoyatda ahamiyatli hisoblanadi. Shu bois hamisha avval o'ylab, keyin so'ylamoq lozim. Bekorga dono xalqimizda "O'zbeklarda insonni libosiga qarab kutib olinsa, muomalasiga qarab kuzatiladi" deyilmaydi. "Gap bilganga ming tanga..." ekanligi ham bejiz emas.

Adabiyotlar:

1. N. Mahmudov, A.Raviyev, I.Yo'ldoshev Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2013
2. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M. Nutq madaniyati va adabiy norma. Toshkent: Fan, 1973.
3. A.J.Omonturdiyev., Sh.I.Abduraimova O'zbek nutqi madaniyati madaniyati va uslubiyati. Toshkent-2016

PEZIOME

O'zbek adabiy tili asosan besh nutq uslubidan iborat. Bular: so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik(ommaviy) uslub va rasmiy-idoraviy uslublardir. Har bir uslub o'ziga xos belgilovchi xususiyatlarga ega. Soddalik, murakkablik, aniqlik, ilmiy atama va qolipli jumalardan foydalanish kabi. Bu xususiyatlardan tashqari so'z ma'nolari orasidan uslubga asoslangan holda so'z tanlash



muhim ko'nikma sanaladi. Dars mashg'ulotlari jarayonida o'quvchi va talabalarga uslub talabiga mos so'z tanlashni o'qitishda "Ma'lumotlar zanjiri", "T-chizma", "X-Y o'qlari" kabi metodlardan samarali foydalanish mumkin. Dars jarayonida mavzuga mos metod tanlash mavzuni to'liq o'zlashtirishga zamin bo'ladi.

РЕЗЮМЕ

Узбекский литературный язык в основном состоит из пяти речевых стилей. Это: разговорный стиль, художественный стиль, научный стиль, публицистический (публичный) стиль и официально-ведомственный стиль. Каждый стиль имеет свои определяющие характеристики. Например, простота, сложность, точность, использование научных терминов и шаблонных предложений. Помимо этих особенностей, важным навыком является выбор слов на основе стиля среди значений слов. В ходе уроков учащиеся могут эффективно использовать такие методы, как «Цепочка данных», «Т-диаграмма», «Ось X-Y» для выбора слов, соответствующих требованиям стиля. Выбор подходящего для предмета метода в ходе урока является основой полного овладения предметом.

SUMMARY

Uzbek literary language mainly consists of five speech styles. These are: conversational style, artistic style, scientific style, journalistic (public) style and official-departmental style. Each style has its own defining characteristics. Such as simplicity, complexity, precision, use of scientific terms and clichéd sentences. Apart from these features, choosing words based on style among word meanings is an important skill. During the lesson, students can effectively use methods such as «Data chain», «T-chart», «X-Y axis» to choose words suitable for the style requirement. Choosing a method suitable for the subject during the course of the lesson is the basis for a complete mastery of the subject.